

**“NKMK” AJ tomonidan 2024-yil davomida faoliyat yo‘nalishlariga  
oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan**  
**HISOBOT**

“NKMK” AJ (keyingi o‘rinlarda - Jamiyat) tomonidan **2024-yil davomida** o‘z faoliyati yo‘nalishlarida quyidagi ishlar amalga oshirildi. Xususan,

1. “NKMK” AJ o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” Qonun, Jamiat ustavi va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirib kelmoqda.

Jamiatning boshqaruvin organi aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi hisoblanadi.

**2024-yil davomida Aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishlari**  
**3 marotaba** (2023-yilga nisbatan 2 taga ko‘p) o‘tkazilib, **19 ta** (2023-yilga nisbatan 10 taga ko‘p) **masalalar** (**7 ta** hisobotlarni ko‘rib chiqish, **3 ta** korporativ boshqaruvgaga oid ichki hujjatlarni tasdiqlash, **7 ta** tashkiliy va **2 ta** boshqa) yuzasidan **qarorlar** qabul qilingan.

**Kuzatuv kengashi yig‘ilishlari** 2024-yilda **13 marotaba** (2023-yilga nisbatan 8 taga ko‘p) o‘tkazilib, **45 ta** (2023 yilga nisbatan 11 taga ko‘p) **masalalar** (**11 ta** moliyaviy, **15 ta** hisobotlarni ma’qullash, **5 ta** korporativ boshqaruvgaga oid ichki hujjatlarni tasdiqlash, **4 ta** tashkiliy, **5 ta** moliyaviy mablag‘larni jalb qilish, **5 ta** boshqa) yuzasidan **qarorlar** qabul qilingan. Shuningdek, Kuzatuv kengashi huzuridagi **qo‘mitalarning yig‘ilishdari** 2024-yilda **7 marotaba** (2023-yilga nisbatan 6 taga ko‘p) o‘tkazilib, **13 ta** (2023-yilga nisbatan 10 taga ko‘p) **masalalar** yuzasidan Kuzatuv kengashiga takliflar kiritilgan.

**Boshqaruvin yig‘ilishlari** 2024-yilda **91 marotaba** (2023-yilga nisbatan 9 taga ko‘p) o‘tkazilib, **198 ta masalalar** (**74 ta** moliyaviy, **45 ta** tashkiliy, **79 ta** boshqa) yuzasidan **qarorlar** qabul qilingan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-sod Farmonining 5-bandida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari hamda Hukumat vakolatlariga oid boshqa dolzarb masalalarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish tartibi belgilangan bo‘lib, unga muvofiq,

normativ-huquqiy hujjalari loyihalari va masalalar Hukumatga bevosita vazirlar va boshqa mustaqil ijobi etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari tomonidan belgilangan tartibda kiritilish belgilangan.

Shuningdek, davlat ishtirokidagi tashkilotlar va xo'jalik birlashmalari tomonidan normativ-huquqiy hujjalari loyihalari va boshqa masalalar tegishli sohada davlat siyosatini amalga oshirayotgan vazir yoki boshqa mustaqil ijobi etuvchi hokimiyat organi rahbari orqali kiritilishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijobi etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PF-14-sod Farmoni bilan vazirliklar va alohida maqomga ega mustaqil respublika ijobi etuvchi hokimiyat organlarining ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, unda "Navoiy kon-metallurgiya kombinasi" AJ ko'rsatib o'tilmagan.

Yuqoridagilarga asosan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan vazirlik va idoralar, davlat ishtirokidagi tashkilotlar va xo'jalik birlashmalari rahbarlariga 2023-yil 16-fevralda 11/42-1/280-sonli xat bilan mazkur farmonlar talablari asosida kiritilmagan normativ-huquqiy hujjalari loyihalari huquqiy ekspertizadan o'tkazilmasligi ma'lum qilingan.

Shunga ko'ra, "NKM" AJ tomonidan normativ-huquqiy hujjalari loyihalari to'g'ridan-to'g'ri idoralararo kelishuvga va elektron tizimlarga (portal, platformalar) muhokamaga qo'yilmasligi ma'lum qilinadi.

**3. "Navoiy kon-metallurgiya kombinasi" AJ da 2024-yil yanvar-dekabr oylari davomida** ijobi.gov.uz tizimi orqali jami **104 ta** (shundan asosiy ijrochi sifatida - **63 ta**, hamijrochi sifatida - **41 ta**) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari nazaratga olingan bo'lib, **topshiriqlar ijrosi to'liq ta'minlandi va nazaratdan yechildi**.

Kombinat ichki hujjalari aylanish tizimi edo.ijob.gov.uz (mf.ijob.gov.uz) da 2024-yil davomida **2546 ta** yuqori turuvchi organlar hujjalari (**5269 ta** topshiriq) ro'yxatga olingan. Shundan, **4566 ta** topshiriq bajarildi va **703 ta** topshiriq ish jarayonida(muddati mavjud).

**2025-yil (yanvar-dekabr) davomida 76 ta** topshiriq nazaratda bo'lib, yanvar-fevral oyilarida nazaratda bo'lgan **21 ta** topshiriqlar (yanvar-16 ta, fevral- 5 ta) ijrosi o'z muddatlarida ta'minlandi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan kelishilib, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan **nazoratdan yechildi**.



4. “NKMK” AJ tomonidan 2024-yil yakuni bilan quyidagi natijalarga erishildi. Xususan,

**Sanoat** mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi **94,0 trln. so'mni** tashkil qilib, o'sish sur'ati **105,3 foizga** ta'minlandi.

**Investitsiya dasturi** doirasida **789,6 mln. dollar** mablag'lar o'zlashtirilib, prognoz ko'rsatkich **100,1 foizga** bajarildi (o'sish sur'ati **166,8 foiz**).

2024-yil yakuni bilan umumiy qiymati **402,2 mln. dollar** bo'lgan **2 ta investitsion loyihalar** ishga tushirildi.

Jumladan, “Pistali konida oltin tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish (6-GMZ) (infratuzilma ob'ektlari)” hamda “Amudaryo-Zarafshon suv quvurining 3-liniyasini qurish va nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish” loyihalari foydalanishga topshirildi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish xorijiy banklarning kredit mablag'lari hisobidan amalga oshirildi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida **715 ta** (prognozga nisbatan **145,9 foiz**) yangi ish o'rnlari tashkil qilindi.

**183 ta** loyihalar bo'yicha **915,8 mlrd. so'mlik** mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi (o'sish sur'ati **145,5 foiz**).

**Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish** bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi **3,7 trln. so'mga** yoki **13,0 foizga** kamaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-maydagi tegishli qaroriga muvofiq "NKMK" AJ iqtisodiy va operatsion samaradorligi yuqori va istiqbolli investitsiya dasturlarini davlat kafolati va ko'magisiz mustaqil moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan zamonaviy korxonaga aylantirish, xalqaro kredit reytingini qo'lga kiritish, xalqaro obligatsiyalarni muomalaga chiqarish kabi bir qator muhim vazifalar belgilangan.

"**Fitch Ratings**" hamda "**S&P Global Ratings**" xalqaro reyting agentliklari tomonidan "Barqaror" prognozi bilan "BB-" darajasidagi uzoq muddatli **kredit reytingi** olindi. O'z navbatida, mazkur xalqaro reyting agentliklari tomonidan "NKMK" AJning kreditga layoqatlilik xususiyatlari (SACP) bugungi kunga qadar O'zbekiston Respublikasi korxonalari orasidagi eng yuqori ko'rsatkich "**bb+**" darajasida baholandi.

London xalqaro fond **birjasida** umumiyligi qiymati **1 mIrd. dollar** miqdoridagi xalqaro korporativ obligatsiyalar muomalaga chiqarildi.

Mazkur voqeа "NKMК" AJ bilan birga butun mintqa uchun ham muhim voqealarni aks ettirdi. Xususan,

obligatsiyalar uchun jami buyurtmalar 5,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi va dastlabki buyurtmadan **5,5 baravarga** oshib, O'zbekiston Respublikasi emitentlari orasida ilk bor 2019 yilda chiqarilgan suveren obligatsiyalarning **eng yuqori ko'rsatkichni** tashkil etdi;

2020-yil iyulidan boshlab MDHda xalqaro korporativ obligatsiyalarning eng yirik emissiyalaridan biri va O'zbekiston Respublikasi tarixida suveren obligatsiyalardan keyingi **eng yirik emissiyasi** hisoblanadi.

2025-yilda "NKMК" AJ tomonidan **500,0 mln AQSh dollari** miqdoridagi navbatdagi xalqaro korporativ obligatsiyalar emissiyasini amalga oshirish rejalashtirilgan.



## “NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ FAOLIYATINING 2024-YILDAKİ YAKUNLARI

2024-yilda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ tomonidan

**93.9** trln. soʻmlik mahsulot  
ishlab chiqarildi



Investitsiya dasturi  
doirasida

**790** mln. \$  
mablagʼ oʼzlashtirildi



Oʼsish surʼati 2023-yilga  
nisbatan

**105.3%** ga teng boʼldi



Karajatlarni maqbullashtirish boʼyicha  
kompleks chora-tadbirlar ijrosi mahsulot  
tannarxini

**3.7** trln. soʻmga  
kamaytirish imkonini berdi



Oʻzbekiston Respublikasi  
Davlat byudjetiga

**57.5** trln. soʻm

miqdorida soliqlar va  
dividendlar toʼlandi



Mahalliyashtirish  
dasturi doirasida

**916**

mlrd. soʻmlik  
mahalliyashtirilgan  
mahsulot ishlab chiqarildi



**715** ta

yangi ish oʼrni yaratildi



5. 2024-yil davomida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va boʼlinmalarida jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, murojaatlarini koʼrib chiqish natijalarining tahlili yoʼnalishida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tizimida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, murojaatlarni koʼrib chiqish boʼyicha amalga oshirilgan ishlar natijalari tahlil etildi.

**2024-yil davomida** “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati rahbariyati nomiga jami - **4066 ta** murojaat yozma, ogʼzaki, elektron va Oʼzbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi hamda Bosh vazirining tadbirkorlar murojaatlarini koʼrib chiqish qabulxonasi orqali murojaatlar kelib tushgan.

“NKMK” AJ rahbariyatining jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish hamda boʼlinmalarda sayyor qabullarni tashkil qilish jadvali tasdiqlangan boʼlib, **2024-yil davomida jami 55 nafar fuqarolar**

Markaziy kon boshqarmasi, Shimoliy kon boshqarmasi hamda Janubiy kon boshqarmalarida o'tkazilgan sayyor qabullarda qabul qilindi. Mazkur murojaatlar bo'yicha joyida huquqiy tushunchalar berildi.

Quyidagi shakllarda murojaatlar qabul qilindi:

- og'zaki murojaatlar soni – **471 ta** (11.6 %);
- yozma murojaatlar - **862 ta** (21.3 %);
- elektron murojaatlar – **2733 tani** (67.1%) tashkil etgan.

Kelib tushgan yozma murojaatlarning tahlili:

- mehnat va bandlik masalalari – **420 ta** (48.9 %);
- uy-joy masalalariga oid – **15 ta** (1.7 %);
- pensiya, nafaqa pullari tayinlash – **35 ta** (4 %);
- ta'lim masalalariga oid – **63 ta** (7.3 %);
- ijtimoiy himoya bilan bog'liq masalalar – **130 ta** (15.5 %);
- tibbiyot bilan bog'liq masalalar – **40 ta** (4.6 %);
- boshqa masalalar – **155 tani** (18 %) tashkil etadi.
- 


Yozma murojaatlarni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra, murojaatlarning **169 tasi (19,6%)** ijobiy hal qilingan, **694 tasi (80,4%)** tushuntirish berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan **2610 ta** murojaatlarni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra, **601 tasi ya'ni (23%)** foizi ijobiy hal qilingan, **1432 tasi (54,9%)** huquqiy tushuntirish berish orqali hal qilingan, murojaatlarning qolganlaridan 268 tasi (10,4%) joyida tushuntirish berilgan, 285 tasi (10,9%) tugatilgan, 19 tasi (0,8%) nazoratda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan **2610 ta** murojaatlar masalalar kesimida tahlil qilinganda:

- mehnat va bandlik masalalari – **2015 ta** (77.2 %);
- uy-joy masalalariga oid – **14 ta** (0.5 %);
- nafaqa va ijtimoiy masalalar – **5 ta** (0.19 %);

- ta'lif masalalariga oid – **4 ta** (0.2 %);
- ijtimoiy himoya bilan bog'liq masalalar – **27 ta** (1.0 %);
- tibbiyot bilan bog'liq masalalar – **3 ta** (0.11 %);
- boshqa masalalar – 542 tani (20.8 %) tashkil etadi.



**6. "NKMK" AJda (keyingi o'rirlarda - Jamiyat)** korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash yo'nalishida 2024-yil davomida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan,

### **Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida.**

2024-yil 10-yanvarda **12 banddan** iborat "NKMK" AJda 2024 yil davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash yo'nalishida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar dasturi va 2024-yil 30-yanvarda Jamiyat tizimida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish

xavflarini kamaytirish bo'yicha **9 ta banddan** iborat yo'l xaritasi tasdiqlandi va ijrosi to'liq ta'minlandi.

Jamiyatda **2024-yildan** aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi, kuzatuv kengashi va boshqaruviga ko'rib chiqish uchun kiritiladigan va ularning so'roviga ko'ra yuboriladigan hujjatlar loyihalari, Bosh direktor va bosh direktor o'rinnbosarlari qabullari yakuni bo'yicha tuzilgan bayonnomalar loyihalarini Bosh yuriskonsult va Komplayens xizmati tomonidan **huquqiy va korrupsiyaviy ekspertizasidan o'tkazish tartibi** joriy etildi. Mazkur yo'naliishlar bo'yicha **128 ta** (*38 ta fugaro qabullari bo'yicha va 90 ta boshqaruvga ko'rib chiqish uchun kiritilgan*) hujjatlarning qonuniyligi ko'rib chiqildi.

Xizmat tomonidan jami **7 121 ta** (*6 164 ta buyruq va 957 ta farmoyish*) ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Korrupsiyaviy ekspertiza natijasida **516 ta** ichki idoraviy hujjatlar normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.

Jamiyatning markaziy apparati va barcha tarkibiy bo'linmalarida 2024-yil 1-choragida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash o'tkazildi. Baholash natijalariga ko'ra, **947 ta** funksiyalar baholanib, shundan **3 ta** "yuqori", **45 ta** "o'rta" va **899 ta** "past" darajadagi xavf-xatarlar aniqlandi hamda ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2024 yil 20 fevralda **46 ta** banddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi.

Bugungi kunda dasturning **33 ta** bandi ijrosi ta'minlandi va qolgan bandlarining ijrosi nazoratga olindi. Dastur ijrosi natijasida **22 ta** yo'naliish tartibga solindi va **11 ta** yo'naliish avtomatlashtirildi.

2024-yil mobaynida Jamiyat ishchi-xodimlari bilan **138 marotaba** (*jumladan, 105 ta seminar, uchrashuv va davra suhbat, 26 marotaba rasmiy veb-sayt, 2 ta gazeta, 3 marotaba televideniya, 2 marotaba radioda*) huquqiy targ'ibot va profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Targ'ibot tadbirlarida **8 478 nafar** ishchi-xodimlar ishtiroki ta'minlandi.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtga qadar Janubiy kon boshqarmasining **5 708 nafar** xodimlari "Korrupsiyaga qarshi (Compliance) elektron kursi bo'yicha o'qitildi.

Xizmat xodimlari tomonidan jami **30 marotaba** shundan, **17 marotaba** onlayn va **13 marotaba** an'anaviy malaka oshirish kurslarida ishtirok etildi.

"NKM" AJ va uning tarkibiy bo'linmalarida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnomalar talablari asosida tanlov asosida

ishga qabul qilinuvchi **1 459 nafar** nomzodlar ustidan tekshiruvlar amalga oshirildi. Nomzodlarni tekshirish natijasida **1 456 ta** ijobiy va **3 ta** salbiy xulosalar berildi.

Tanlov va mehnat qonunchiligi doirasida ishga qabul qilingan **1 456 nafar** xodimlarning mehnat shartnomalariga hamda “NKMK” AJ tomonidan tuzilgan **18 970 ta** xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilishi ta'minlandi.

2024-yil mobaynida jami **37 marotaba** o'rganish va xizmat tekshiruvlari o'tkazildi.

O'tkazilgan monitoringlar natijasida **148 ta manfaatlar to'qnashushi holatlari** shundan, **46 ta** mavjud va **102 ta** ehtimoliy manfaatlar to'qnashushi holatlari aniqlandi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha Odob-axloq komissiyalari tomonidan tegishli tartibda qarorlar qabul qilindi.

Xaridlar sohasida “Tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha” Komissiyasi (*komissiya tarkibiga Komplaens xizmati kiritilgan*) tomonidan **8 ta** tender va **26 ta** tanlash hujjatlari bo'yicha tovar yetkazib beruvchilar hujjatlari ko'rib chiqilib, qonuniylik ta'minlandi.

Kombinat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishmoqchi bo'lgan **19 095 ta** kontragentlar tekshirildi.

Bundan tashqari, “NKMK” AJ bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishuvchi xorijiy jismoniy va yuridik shaxs hamda banklarni sanksiyalar bo'yicha nazarat qiluvchi Komissiya (*komissiya tarkibiga Komplaens xizmati kiritilgan*) tomonidan **19 ta** kontragent hujjatlari sanksiyaviy nazaratdan o'tkazildi. Shundan, **15 tasi** bo'yicha ijobiy va **4 tasi** bo'yicha salbiy xulosa berildi.


Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini **reyting baholash** tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-81-sون qaroriga ko'ra, 2024 yil yakuni bo'yicha **29 turdag'i** ma'lumot va hisobotlar “**E-Anticor.uz**” elektron platformasiga kiritildi.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 154-sон Farmoni ijrosi yuzasidan tegishli ma'lumotlarning belgilangan muddatlarda Kombinatning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi ta'minlanmoqda.

Jamiyatning www.nkmk.uz rasmiy veb-saytida hamda ichki portalda (*kombinat xodimlari uchun joriy etilgan*) joriy etilgan “**Ochiq ma'lumotlar**” bo'limlarida ichki idoraviy hujjatlar, ochiq e'lon qilinishi belgilangan ma'lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli aloqa kanallari, ijtimoiy videoroliklar joylashtirilmoqda hamda ushbu ma'lumotlar doimiy tarzda yangilanib borilishi nazoratga olingan.

Shu bilan birga, Kombinatning 2024-yil 9-fevraldagi tegishli buyrug'i bilan “NKMK” AJning faoliyatiga oid ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar, ularni yangilab borish muddatlari va mas'ul ijrochilar ro'yxati hamda ma'lumotlarning namunaviy shakllari tasdiqlandi. Mazkur ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda rasmiy veb-saytga e'lon qilinishi nazorat olindi.

Bundan tashqari, “NKMK” AJ ochiqlikni ta'minlashda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda kombinatda amalga oshirilgan ishlar doimiy ravishda yoritib borilmoqda.



2024-yil davomida OAV vakillari va jurnalistlar uchun mas'ul rahbarlar ishtirokida **11 marotaba** brifinglar tashkil etildi.

Xususan, 2024-yil 21-22-iyun kunlari Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi "Gornyak" pansionatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi va "Navoiy kon-metallurgiya kombinasi" AJ hamkorligida davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari rahbarlari uchun 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuniga bag'ishlangan "Axborot xizmatlari faoliyati: ochiqlik, tezkorlik va xolislik bosh mezon" mavzusida an'anaviy Milliy konferensiya va Media-forum o'tkazildi. Mazkur tadbirda "NKMK" AJ Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha direktor X.Raupov, axborot xizmati xodimlari A.Zaripov, Z.Olimov, A.Ro'zievlar ishtirok etishdi.

Bundan tashqari, 2024-yil davomida "NKMK" AJ faoliyatini yoritish yuzasidan tele-radio kanallar, ijtimoiy tarmoqlar, mesenjerlar va veb-saytlarda chiqishlar qilindi. Jumladan,

markaziy va viloyat telekanallarda **108 marotaba** xabar, yangilik, videolavha, ko'rsatuv, maxsus reportaj namoyish etildi;

respublika va viloyat gazetalarida **87 marotaba** xabar, yangilik, maqola, tahliliy maqola chop etildi;

respublika va mahalliy OAVlarning veb-saytlarida **209 marotaba** xabar, yangilik, maqola, reportaj, fotoreportaj e'lon qilindi;

mahalliy radiokanallarda **34 marotaba** xabar, yangilik va suhbat e'lon qilindi;

"NKMK" AJning [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz) rasmiy saytida o'zbek, rus, ingliz tillarda **346 marotaba** xabar, yangilik, maqola, tahliliy maqola va infografikalar joylashtirildi;

"NKMK" AJning Telegram, Facebook, Instagram, Youtube, Twitter va LinkedIn ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida qariyb **9 000 ta** post va videolavha joylashtirildi;

xorijiy ommaviy axborot vositalarida **11 marotaba** materiallar e'lon qilindi.



**8.** “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” Ajda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ish jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida 2024-yil davomida ijobiy natijalarga erishildi.

Xususan, Janubiy kon boshqarmasi Zarmitan koni yer osti lahmlarida **“Yer osti ishchi xodimlari va texnikalarning joylashishini nazorat qilish, aloqa va ogohlantirish tizimi”**ni joriy etish orqali tog'-kon dispatcherlik xizmatiga yer osti konlarida ishlovchi muhandis-texnik xodimlarning soni, joylashuvi va salomatligining muhim ko'rsatkichlari, transport vositalarining soni, joylashuvi va harakat yo'nalishlari to'g'risidagi tezkor ma'lumotlarni taqdim etish orqali kon ishlari xavfsizligi oshirildi.

**Zamonaviy ma'lumotlarni qayta ishlash markazining yaratilishi** “NKMK” AJning raqamli transformatsiya dasturi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar uchun axborot tizimlarini qayta ishlash va ma'lumotlarni saqlash uchun server resurslari bilan ta'minlash, shuningdek, yuqori ishlab chiqarish samaradorligi ta'minlanadigan sifatlari

xizmatlar bilan biznes-jarayonlarni avtomatlashtirishni ta'minlash imkonini berdi

**"1S: TOIR Uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishni boshqarish"** axborot tizimini yaratilishi uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishni boshqarish, qayta ishlash orqali uskunalarni ta'mirlash samaradorligini oshirishdi.

**"1S: Avtotransportni boshqarish"** tizimi o'zida avtotransport vositalarini boshqarish, transport logistikasi va ekspluatatsiyasi jarayonlarini avtomatlashtirish, barcha avtotransport vositalari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni rejalashtirish va nazorat qilish, har bir transport vositasining yoqilg'i sarfini nazorat qilish orqali yoqilg'i to'ldirish yoki to'layotgan ma'lumotlarni yozish, yoqilg'idan foydalanish tahlili va samarasiz sarflarni aniqlash, marshrutlarni optimallashtirish va vazifalarni bajarish uchun transport vositalariga taqsimlash, ekspluatatsion xarajatlar, transport vositalari texnik holati, yoqilg'idan foydalanish, ta'mirlar va boshqa hisobotlarni shakllantirish, barcha avtotransportni ekspluatatsiya qilish yo'nalishlarida yuqori darajada nazoratni ta'minlaydi, bu o'z navbatida xarajatlarni kamaytirish va ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Micromine Geobank tizimini** joriy etish jarayonida ma'lumotlar bazalarini standartlashtirish, tizimda mavjud jarayonlar, ularni sozlash, shu jumladan geologik qidiruv loyihalari bo'yicha birlamchi geologik ma'lumotlarni to'plash va foydali qazilmalar modellarini yaratish uchun geologik ma'lumotlar bazalarini shakllantirish va tekshirish imkonini berdi.

**ArcGIS dasturiy mahsulotlari asosida geoaxborot tizimlaridan** foydalanishni avtomatlashtirishni yaratish bo'yicha kompleks xizmatlar orqali geografik ma'lumotlarni yaratish, tahlil qilish, interaktiv xaritalar yaratish, fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish, turli formatdagi geoma'lumotlar bilan ishslash, geoma'lumotlarga asoslangan jarayonlarni bashorat qilish va ularni optimallashtirish imkonini yaratdi.

**Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini hisobga olish va nazorat qilishning yagona axborot tizimini**

joriy etish xodimlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash maqsadida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, mehnatni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazish xarajatlarini kamaytirish, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik sohasida hisobotlarni tuzish, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xodimlarning bilim darajasini oshirish, ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar, kasb kasalliklari sabablarini hisobga olish va tahlil qilish, mehnatni muhofaza qilish ko'rsatkichlarini baholash va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarini tekshirishni imkonini yaratdi.

**2-gidrometallurgiya zavodi qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish loyihasi doirasida 30-tegirmon blokida texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi** yaratildi. Ushbu tizim joriy etish bilan texnologik reglament me'yorlaridan chetga chiqishni o'z vaqtida aniqlash hisobiga ishlab chiqarish quvvati oshirildi hamda ishlab chiqarish quvvat darjasini pasayishining oldi olindi. Bundan tashqari, iste'molchining stavkalarini doimiy monitoring qilish va tartibga solish ko'rsatkichlarini optimallashtirish bo'yicha doimiy ishlarni amalga oshirish orqali energiya resurslari tejalishiga erishildi.

**Auminzo-Amantoy ma'danli maydonida oltin ma'danlarini qazib olish va qayta ishlash konini qurish loyihasi doirasida 1-tegirmon blokida texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi** joriy qilindi. Texnologik reglament me'yorlaridan chetga chiqishni o'z vaqtida aniqlash hisobiga ishlab chiqarish quvvati oshirildi hamda ishlab chikarish quvvat darjasini pasayishini oldi olindi.

5-sonli gidrometallurgiya zavodi 3-tegirmon blokida hamda 6-sonli gidrometallurgiya zavodi 1-tegirmon blokida **texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (SCADA)** joriy qilindi. Natijada, tizim maydalash tegirmonlarining yuklanish sathini avtomatik boshqarish orqali tegirmonlarning optimal yuklanishini ta'minladi. Bu esa o'z navbatida tegirmonlarning ishlab chiqarish quvvatini **5 foizgacha** oshishiga, ma'danni maydalash jarayonidagi solishtirma elektr energiya sarfini **3 foizgacha** kamayishiga, tegirmonlarning ta'mirdan ta'mirgacha bo'lgan ishlash muddatini uzayishiga olib keldi.

**9.** “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJda xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, bilim va malakasi shu jumladan, professional ko‘nikmalarini oshirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

“NKMK” AJda ishga qabul qilish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-iyundagi 52-2023/B-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ishga qabul qilish chog‘ida tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi namunaviy nizom” va boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan foydalaniladi.

Mazkur hujjatlar asosida “NKMK” AJning kadrlar siyosati”, “NKMK” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalariga tanlov asosida kadrlarni ishga qabul to‘g‘risidagi Nizom”lar tasdiqlangan.

“NKMK” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalariga tanlov asosida kadrlarni ishga qabul qilish to‘g‘risidagi Nizom”ga asosan, ishga qabul qilish tegishli sohadagi yuqori malakali mutaxassislar, ishchilar va komlaens xizmati xodimlari vakillaridan tashkil topgan Tanlov komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Mazkur jarayonlar avtomatlashtirilgan bo‘lib tanlov uchun “mehnat.ngmk.uz” elektron platformalari yordamida bo‘sh ish o‘rnlari to‘g‘risida ma’lumotlarni olish va nomzodlar tomonidan birlamchi hujjatlarni yuborish imkoniyati mavjud.

Respublika miqyosida va xorijdan yuqori malakali mutaxassislarni jalg qilish maqsadida, “**hh.uz**” sayti orqali bo‘sh ish o‘rnlari to‘g‘risida ma’lumotlar berib boriladi.

Shuningdek, 2024-yil uchun tasdiqlangan rejaga muvofiq kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini hamda umumiylarini ta’lim darajasini oshirish bo‘yicha ishlar tashkil etildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Prezident Farmonlarini va Hukumat qarorlarini ijrosini, hamda kombinat bo‘linmalarini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash maqsadida Xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish bo‘limi tomonidan 2024-yilda quyidagi maqsadli ishlar amalga oshirildi.

Jamiyat ehtiyojlari uchun kadrlar tayyorlashning amaldagi tizimiga muvofiq, oliv ma'lumotli mutaxassislar va yuqori malakali ishchilar, shuningdek, professional o'rta bo'g'in ta'limga ega mutaxassislar tayyorlanadi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash asosan respublika oliy ta'limga muassasalarida, ayrim mutaxassisliklarda esa xorijiy mamlakatlar oliy ta'limga muassasalarida amalga oshiriladi. 2025-yil 1-yanvar holatida jamiyat hisobidan jami **326 nafar** talabalar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida kunduzgi bo'limda tahsil olayotgan talabalar **7 nafarni**, Respublikamizning oliy o'quv yurtlarining sirtqi bo'limlarida **319 nafar** xodimlarimiz tahsil oladi.

Navoiy davlat konchilik texnologiyalar universiteti (NDKTU)da kunduzgi bo'lim bakalavriatda o'qiyotgan talabalar yanada samarali va sifatli tayyorgarligini ta'minlash uchun universitet o'qituvchilari, "NKMK" AJ kadrlar boshqarmasi va kombinatdagi ishlab chiqarish bo'linmalari mutaxassislar bilan birgalikda o'qitishni o'z ichiga olgan **dual tizimi** buyicha treninglar tashkil etildi. Bu esa kombinat bo'linmalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga olib keladi.

Jamiyatni professional o'rta bo'g'in ta'limga ega bo'lgan kichik mutaxassislar bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-sonli Farmoniga binoan kombinatga biriktirilgan quyidagi texnikumlarida amalga oshiriladi:

- Zarafshon sanoat kasb-hunar texnikumi;
- Uchquduq konchilik kasb-hunar texnikumi.

Shu bilan birga, kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash buyicha jamiyat bo'linmalari tizimida **3 ta** O'quv markazi, **2 ta** O'quv-kurs kombinati mavjud bo'lib, hisobot davrida **15 261 nafar** ishchi o'qitildi, shundan **7 918 nafari** qayta tayyorlandi va **4 922 nafari** malaka oshirdi.

Rahbar, mutaxassis va xodimlarning malakasini oshirish kombinatda, respublika institutlari va malaka oshirish markazlarida amalga oshiriladi. Hisobot davrida **2 421 nafar** xodim o'z malakasini oshirdi.

## 2024-YIL SARHISOBI: KADRLARNI TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INFOGRAFIKASI



**10.** Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan yangi O'zbekistonda axborot va ochiqlik siyosati bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilayotgan va bu yo'nalishda qo'lga kiritilgan yutuqlar xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak baholanmoqda.

Bu borada qator huquqiy hujjalalar qabul qilinishi fuqarolarning axborotni erkin izlash va olishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini oshirish, ular faoliyatini baholashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-154-sun Farmoni qabul qilinib, unda muhim vazifalar belgilandi.

Farmon ijrosini yuzasidan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJning 2023-yil 8-maydagi "Jamoatchilik kengashini tuzish to'g'risida"gi tegishli buyrug'i qabul qilinib, **15 nafar** a'zolardan iborat kengash tarkibi, Nizomi, Korrupsyaga qarshi kurashish hamda Ochiqlikniga ta'minlash bo'yicha ekspert guruhlari tarkibi tasdiqlandi.

Jamoatchilik kengashi a'zolarining yarmidan ko'pi nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati instituti vakillari iborat tarkibda tashkil etildi.

Jamoatchilik kengashining 2024-yilga mo'ljallangan 10-banddan iborat ish rejasi tasdiqlanib, ijrosi to'liq ta'minlandi. Shu bilan birga, 2024-yil

davomida **2 marotaba** kengashning kengaytirilgan va **4 marotaba** kengash faoliyatining asosiy vazifalari yuzasidan yig'ilishlari o'tkazildi.

Hisobot davrida Markaziy, Shimoliy, Janubiy va "Qizilqum" kon boshqarmalarida, "Navoiy mashinasozlik zavodi" IChB, Zarafshon qurilish boshqarmasi, Geologiya-qidiruv ekspeditsiyalarida yig'ilishlari tashkil etildi va jamoatchilik fikrini o'rganish maqsadida ishtirokchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi.

**11.** "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ tomonidan xorijiy mamlakatlarning shu vazifa va funksiyalarni bajaruvchi tashkilotlar bilan hamkorlik, tajriba almashish va ilg'or amaliyotni implementatsiya qilish yo'nalishida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, "NKKM" AJ tomonidan xalqaro tashkilot va kompaniya vakillari uchun **871 ta** tashrif dasturi tayyorlandi. Shundan, **251 ta** tashrif dasturi xorijiy delegatsiyalar uchun, **620 tasi** milliy tashkilot va kompaniya vakillari uchun tayyorlangan.

2024-yil davomida "NKKM" AJ rahbar hodimlarini **11 ta** turli xalqaro va respublika miqyosidagi anjuman, forum, ko'rgazma va boshqa tadbirlarda qatnashishi ta'minlandi.

Ushbu tadbirlar dunyoning turli shaharlari, xususan, Toronto (Kanada), London (Buyuk Britaniya), Bishkek (Qirg'iziston) va Dushanbe (Tojikiston) shaharlarida bo'lib o'tdi.



**12.** “NKMK” AJ tomonidan 2024-yil yakuni bilan faoliyatdagi muhim ko’rsatkichlarning oldingi yillardagi ko’rsatkichlarga nisbatan tahlili quyidagicha hisoblanadi.


**2024-yilda sanoat** mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi **94,0 trln. so‘mni** tashkil qilib, bu ko’rsatkich 2023-yilda **67,5 trln.so‘mni** tashkil qilgan.

**Investitsiyalarni o’zlashtirish** doirasida **789,6 mln. dollar** mablag’lar o’zlashtirilgan bo’lib, bu ko’rsatkich 2023-yilda **474 mln. dollarni** tashkil qilgan.

**Mahalliylashtirilgan mahsulot** ishlab chiqarish **905,0 mlrd. so‘mni** tashkil qilib, bu ko’rsatkich 2023-yilda **629 trln.so‘mni** tashkil qilgan.

**Investitsiya loyihamalarini** amalga oshirish doirasida **715 ta** yangi ish o’rinlari tashkil qilinib, bu ko’rsatkich 2023-yilda **1445 tani** tashkil qilgan.

**Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish** bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi **3,7 trln. so‘mga** kamaytirilib, bu ko’rsatkich 2023-yilda **1,4 trln.so‘mni** tashkil qilgan.



Korporativ kotibiyat mudiri  
– korporativ maslahatchi

S. Murtazaev

Jamoatchilik bilan aloqalar  
bo'yicha direktor

X. Raupov

Komplayens xizmati boshlig'i

R. Avezov

(Корпоратив менеджер)  
У. Авезов  
  
18.07.2015

(Бюджетарий  
бюджетчи)  
У. Кочаев  
  
18.07.2015

(АКТБ  
бюджет)  
Б. Бозоров  
  
18.07.2015

(Национальный  
менеджер)  
А. Дауренов  
  
18.07.2015

(Корпоративный  
менеджер)  
Р. Садиков  
  
18.07.2015

(Управление)  
Т. Тарасов  
  
18.07.2015

(Маркетинг)  
Ш. Угулов  
  
18.07.2015

(Хокимият)  
Г. Рахимова  
  
18.07.2015

(Корпоратив  
менеджер)  
Д. Толиконов  
  
18.07.2015

(Развитие  
коммуникаций)  
Б. Тасеев  
  
18.07.2015

(Коммайнер)  
О. Чубакова  
  
18.07.2015

18.07.2015